

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Do'simov Shohruh

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 5-10

FILOLOGIYA FANLARI

Zayniddinova Sevinch

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI 11-14

Pulatova Asal

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI
IFODALOVCHI KONSEPTLAR 15-18

Burxonova Gulmira

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI 19-23

Nosirova Shoiraxon

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI 24-28

Султонова Лолахон

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") 29-33

YURIDIK FANLAR

Kalimbetov Nesip

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI 34-38

PEDAGOGIKA FANLARI

Tojiboyeva Shohistaxon

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI
RIVOJLANTIRISH MODELI 39-41

Баймуратова Ирина

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ 42-44

Zokirova Ma'suma

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI 45-49

Maxkamova Husnida

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI' TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI 50-54

Qo'chqarov Bahodir

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 55-60

Adasheva Xilola

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI 61-66

Abduqahhorova Mahliyo

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI 67-70

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Qo'chqarov Bahodir Abdullajonovich

Turan International University o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Mahmud Koshg'ariyning buyuk merosi bo'lmish "Devonu lug'otit turk" asarining turkiy xalqlar og'zaki ijodini (folklorini) o'rganishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati tadqiq qilinadi. XI asrda bitilgan ushbu asar shunchaki lug'at emas, balki o'sha davrdagi turkiy qavmlarning hayot tarzi, dunyoqarashi, e'tiqodi va badiiy tafakkurini o'zida jamlagan mukammal qomusdir. Maqolada asar asosida yuqori sinf o'quvchilarida milliy pedagogic qadriyatlarni rivojlantirishda innovasion texnologiyalarning ahamiyatini ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Mahmud Koshg'ariy, folklor, maqol, og'zaki ijod, smart learning texnologiyasi, tarix, millat.

IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL VALUES

Kochkarov Bahodir Abdullajonovich

Lecturer at Turan International University

Annotation. This scientific article examines the unique role and significance of Mahmud Kashgari's great legacy, "Devonu lug'otit turk", in the study of the oral culture (folklore) of the Turkic peoples. Written in the 11th century, this work is not just a dictionary, but a perfect encyclopedia that embodies the lifestyle, worldview, beliefs and artistic thinking of the Turkic peoples of that time. The article examines the importance of innovative technologies in the development of national pedagogical values in high school students based on the work.

Keywords: Mahmud Kashgari, folklore, proverb, oral culture, smart learning technology, history, nation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n12>

Qadriyatlar xalqning ming yillar mobaynida to'plangan hayotiy tajribasi, ko'rguliklari, turmush-tarzi va dunyoqarashining mahsuli. U asrlar chig'irig'idan o'tgan aqlning va shavqatsiz hayot tegirmon toshlari orasidan omon chiqqan millatning aqliy salohiyati, falsafiy qudrati, intellektual qiyofasi. Qadriyatlar millat mohiyatini, uning shakli va mazmunini, zohiriyu botinini o'zida ifoda etadi. Unda axloqiy mezonlar, hulq-atvor va munosabatlar mazmuni mujassam. Xullaski, qadriyatlar xalq daholik qudrati va hayot falsafasining in'ikosi".

Yosh avlodni ommaviy madaniyat ta'siridan asrash, ular ongiga o'zligini anglash, milliy qadriyatlarga hurmat hissini singdirib borish zarurati har qachongidan dolzarb ahamiyatga ega bo'lib borayotgan hozirgi kunda o'quvchilar qalbida milliy qadriyatlarni ruhan rivoj toptirish, ularda Vatanga muhabbat, sadoqat tuyg'ularini rivojlantirish jarayonida pedagogik yondashuvlar bilan birga psixologik jihatlarni ham inobatga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti, uning ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanish darajasi bevosita bugungi kunda yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiya sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki yoshlar — har qanday jamiyatning strategik resursi, uning intellektual va ma'naviy salohiyatini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu bois, ularni nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli, milliy o'zlikni anglagan va global jarayonlarda o'z pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Bugungi

globallashuv sharoitida madaniy integratsiya jarayonlari tezlashib, axborot oqimining keskin ortishi natijasida turli madaniy ta'sirlar, xususan g'arb ommaviy madaniyati yoshlar ongiga bevosita yoki bilvosita kirib kelmoqda. Bunday jarayon, bir tomondan, ilm-fan va texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlar, an'anaviy tarbiya tamoyillari va ma'naviy identifikatsiya zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, "ommaviy madaniyat"ning ayrim unsurlari yoshlarning qadriyatlar tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning milliy o'zligini anglash jarayonini murakkablashtirishi xavfi mavjud. Shu nuqtai nazardan, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, vatanparvarlik, ajdodlar merosiga hurmat va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda o'tmish ajdodlarimizdan qolgan boy yozma manbalar, tarixiy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi hamda ma'naviy meroslar muhim didaktik va tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu manbalar orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy tafakkur va madaniy ongni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, shaxsning shakllanishida ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligi alohida o'rin tutadi. Oila — birlamchi tarbiya maskani sifatida bolaning ilk qadriyatlar tizimini shakllantirs, ta'lim muassasasi bu jarayonni ilmiy-pedagogik asosda davom ettiradi. Mahalla esa ijtimoiy muhit sifatida ushbu tarbiya jarayonini mustahkamlovchi muhim institut vazifasini bajaradi. Ushbu uchlik o'rtasidagi uzviy hamkorlik ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Mazkur tizimning eng muhim bo'g'ini esa milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan tarbiya hisoblanadi. Milliy pedagogika — bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, an'analari va ma'naviy qarashlariga tayangan holda shaxsni tarbiyalash tizimidir. U zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashganda, yosh avlodda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki yuksak ma'naviyat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini ham shakllantiradi.

Jamiyatimizning kelajakda qanday bo'lishi bugungi kundagi yoshlarga berilayotgan ta'lim-tarbiyaga bog'liqdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, g'arb mamlakatlaridan madaniyatning kirib kelishi hamda unga ko'r ko'rona ergashish, texnologiyalarning rivojlanishi va ommaviy madaniyatning ta'siriga tushish natijasida yosh avlodni o'zligini yo'qotishga bo'lgan xavfi sezilarli darajada. Shu boisdan ham o'sib kelayotgan yosh avlodni o'zligini anglash, ularni o'tmish ajdodlarimizdan qolgan yozma manbalar orqali milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni faxr tuyg'usini rivojlantirish muhim dolzarb vazifa sanaladi. O'quvchi shaxsining shakllanishida, ularda milliy qadriyatlarni rivojlantirishda maktab, ota-ona hamkorligi o'z o'rniga ega. Bu uzviylikning eng muhim bo'g'ini — bu albatta milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan milliy tarbiyadir.

Milliy pedagogik qadriyatlarni anglatishda o'tmishdan hozirgi kunga qadar asrab avaylab kelinayotgan yozma yodgorliklarning alohida o'rni bor. Ana shulardan biri XI asrning buyuk mutafakkiri, qomusiy olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk'asaridir. Bu asar nafaqat tilshunoslik, balki etnologiya, tarix, adabiyot, falsafa, pedagogika va madaniyatshunoslik sohalari uchun ham beqiyos ilmiy manbaa sanaladi. Unda XI asrda yashab ijod qilgan turkiy qabila va xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti, urf-odatlar, axloqiy qadriyatlari, diniy e'tiqodlar, dunyoqarashi va madaniy merosi to'g'risida sarmazmun ma'lumotlar jamlangan. Shu bilan birgalikda unda ifodalangan milliy pedagogik qadriyatlar — ilm, axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ustozga hurmat orqali yosh avlod tarbiyasi va shaxs kamolotini shakllantirishda muhim manbaa hisoblanadi. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida Zamon bilan hamnafaslikda milliy qadriyatlarni singdirib boorish bugungi

kunda harqachongidan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bunda dars mashg'ulotlari jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish foydadan holi emas. Ana shulardan biri "Smart learning" texnologiyasidir. Ushbu texnologiya bugungi kunda zamonaviy ahamiyatga ega ekanligi, qolaversa milliy qadriyatlarni yuqori sinf o'quvchilarida asar asosida rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ana shulardan biri Devon xazinasini top" Smart-quest o'yini: metodik tavsif va pedagogik ahamiyati

Mazkur interfaol ta'lim texnologiyasi yuqori sinf o'quvchilarida milliy pedagogik qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. "Devon xazinasini top" nomli Smart-quest o'yini Devonu lug'otit turk asarida berilgan maqollar, she'riy parchalar va hikmatli iboralar asosida tashkil etilib, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodiy faolligini oshirishga imkon yaratadi. Jarayonni tashkil etish mexanizmi Mazkur texnologiya doirasida sinf xonasining turli hududlariga QR-kodlar joylashtiriladi. Har bir QR-kod o'zida uchta asosiy komponentni mujassam etadi: bitta maqol yoki she'riy parcha; muayyan milliy qadriyat mazmuni; kichik hajmli tahliliy yoki ijodiy topshiriq. O'quvchilar QR-kodlarni skanerlash orqali topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajaradilar. Bu jarayon ularda raqamli savodxonlik, axborot bilan ishlash ko'nikmalari va mustaqil o'rganish kompetensiyalarini shakllantiradi. Maqollar va ularning pedagogik tahlili Masalan, quyidagi maqol: "Kökka suzsa, jüzga tüşür". Kim osmonga tupursa, yuziga tushadi. Mazkur maqol ijtimoiy-axloqiy me'yorlarning muhim jihatini aks ettiradi. Unda insonning boshqalarga nisbatan qilgan nojo'ya munosabati o'ziga qaytishi g'oyasi ilgari suriladi. Bu orqali o'quvchilarda hurmat, odob, mas'uliyat va ijtimoiy munosabatlarda ehtiyotkorlik kabi sifatlar shakllantiriladi. Ayniqsa, kattalarga hurmat va jamiyatdagi ierarxik munosabatlarni to'g'ri anglash muhim pedagogik natija sifatida yuzaga chiqadi. Keyingi maqol: "Ash tatiğituz juğrın jemas". Osh tuz bilan totli, ammo tuzning o'zi yeyilmaydi. Ushbu hikmat bilim va qadriyatlarining me'yor asosida qo'llanish zarurligini ifodalaydi. Ya'ni har qanday bilim amaliyot bilan uyg'unlashgandagina samarali bo'ladi. Bu o'quvchilarda nazariy bilimlarni real hayotda qo'llash, funksional tafakkur va muvozanatli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. She'riy parcha: "Jaj köpkiçä inänma, Suwlar üzä tajanma, Äcisilirir anuhma, Tilga chiqar ezgu söz" Mazkur she'r orqali hayotning o'tkinchiligi, insonning ma'naviy pozitsiyasi va so'z madaniyati masalalari yoritiladi. O'quvchilar ushbu mazmun orqali vaqtinchalik hodisalarga berilib ketmaslik, barqaror qadriyatlarga tayanish hamda nutq madaniyatini rivojlantirish zarurligini anglaydilar. Yana bir maqol: "Qaj nab ökü z kechsiz bolmas". To'lib-toshgan suv ko'priksiz bo'lmaydi. Bu maqol hayotiy jarayonlarning murakkabligini, har qanday muvaffaqiyat ortida sinov va to'siqlar mavjudligini ifodalaydi. Bu esa o'quvchilarda sabr-toqat, irodaviy barqarorlik va muammoli vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini shakllantiradi. Faoliyat bosqichlari va baholash mezonlari Mazkur Smart-quest texnologiyasini amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1 daqiqalik tezkor munozara tashkil etish; maqol mazmuniga mos hayotiy misollar keltirish; bajarilgan topshiriqlarni "Milliy tarbiya.uz" platformasiga joylashtirish. O'quvchilar faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi: kreativlik, aniqlik va faollik darajasi – 40%; mazmunning milliy qadriyatlar bilan uyg'unligi – 40%; ijodiy yondashuv darajasi – 20%. "Devon xazinasini top" Smart-quest o'yini zamonaviy ta'lim texnologiyalari va milliy madaniy merosning uyg'unlashuvi asosida ishlab chiqilgan samarali metod hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, axloqiy qadriyatlarni qadrlash,

mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi kompetensiyalar izchil rivojlanadi. Shu bilan birga, metod raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli tarixiy makon" VR texnologiyasi asosida milliy pedagogik qadriyatlarni o'rganish modeli. Mazkur innovatsion metod yuqori sinf o'quvchilarini tarixiy-madaniy muhitga immersiv tarzda olib kirish orqali milliy pedagogik qadriyatlarni chuqur anglashga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv Mahmud Koshg'ariy merosini o'rganishda zamonaviy "Smart-learning" va Virtual Reality (VR) texnologiyalarining integratsiyasiga asoslanadi. Metodning asosiy maqsadi o'quvchilarda XI asr turkiy jamiyati hayoti, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qadriyatlari haqida real tasavvur hosil qilish orqali ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirishdan iborat. Metodning maqsadi va vazifalari Mazkur texnologiyaning bosh maqsadi o'quvchilarni tarixiy-madaniy muhitga yaqinlashtirish, ularning milliy o'zlikni anglash darajasini oshirish hamda xalq pedagogikasiga oid qarashlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Shu bilan birga, quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: o'quvchilarda tarixiy tafakkur va obrazli tasavvurni shakllantirish; milliy pedagogik qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglashga yo'naltirish; o'quvchilarni mustaqil fikrlash va tahlil qilishga o'rgatish; qadimiy manbalarni zamonaviy texnologiyalar orqali idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirish. Amalga oshirish mexanizmi. Mazkur metodni tatbiq etishda VR muhitida XI asr turkiy shahar modeli yaratiladi. Ushbu virtual makonda o'quvchilar qadimgi bozorlar, madrasalar, turar-joylar va ijtimoiy hayot manzaralari bilan tanishadilar. Har bir obyektga audio va vizual ma'lumotlar birlashtiriladi. Bu ma'lumotlar orqali Devonu lug'otit turk asarida keltirilgan maqollar, hikmatlar, urf-odatlar va ijtimoiy qarashlar yoritib beriladi. Masalan, quyidagi maqol asosida o'quvchilar tahliliy fikrlashga jalb etiladi: "Jaқadaғi jalғalı әlіғdarі ісғіnur. Odam yoqa bo'lgan yuqni yalashga ovvora bo'lsa, qo'lidagi idish tushadi." Mazkur hikmat insonning mavjud imkoniyatlarini qadrlamasdan, asossiz umid ortidan quvishining salbiy oqibatlarini ifodalaydi. O'quvchilarga ushbu maqol asosida hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, maqsadni to'g'ri qo'yish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish zarurligi tushuntiriladi. Shuningdek, bu fikr pedagogik jihatdan shaxsda mas'uliyat, sabr va ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Yana bir misol: "Ісһіғ тутруғи аз bo'lup – kasalning vasiyat qilishi uning uchun yaxshilik keltiradi." Ushbu maqol inson hayotida adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyatning muhimligini ifodalaydi. VR muhitida bu mazmun o'quvchilarga sahnalashtirilgan holatlar orqali yetkaziladi. Natijada, ular nafaqat nazariy bilim, balki amaliy hayotiy xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'ladilar. Pedagogik samaradorlik. Mazkur metodning samaradorligi bir necha jihatlar bilan belgilanadi: Birinchidan, o'quvchilar o'rganilayotgan materialni bevosita "his qilish" orqali qabul qiladilar, bu esa bilimning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, interaktivlik darajasining yuqoriligi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Uchinchidan, milliy qadriyatlar zamonaviy texnologiyalar orqali taqdim etilgani sababli, ularning mazmuni yosh avlod ongiga yanada chuqurroq singadi.

"Raqamli tarixiy makon" VR texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan mazkur metod Mahmud Koshg'ariy merosini o'rganishda innovatsion yondashuvni ta'minlaydi. U o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ham boyitadi. Natijada, tarixiy meros va zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik yuzaga keladi hamda milliy pedagogik qadriyatlarni rivojlantirishning samarali modeli shakllanadi.

Bu nodir meros orqali o'quvchi-yoshlar o'z ajdodlarining hayot falsafasini, atrof-muhit bilan munosabatini, insoniy fazilatlar haqidagi qarashlarini chuqurroq anglashadi. Natijada, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy o'zlik, vatanparvarlik, faxr va mas'uliyat tuyg'ulari shakllanadi. Asarda berilgan hikmatli fikrlar, o'gitlar va hayotiy kuzatishlar zamonaviy tarbiya jarayonida boy tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Bugungi ta'lim tizimida bu merosni targ'ib qilish orqali nafaqat tarixiy tafakkurni, balki ma'naviy mustahkamlikni shakllantirish mumkin. Natijada, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy o'zlik, vatanparvarlik, faxr va mas'uliyat tuyg'ulari shakllanadi. Asarda berilgan hikmatli fikrlar, o'gitlar va hayotiy kuzatishlar zamonaviy tarbiya jarayonida boy tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlarni rivojlantirish va ularni yosh avlod ongiga chuqur singdirish bugungi globallashtirish sharoitida jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqib, an'anaviy ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, raqamli ta'lim platformalari, multimedia vositalari, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar hamda virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari milliy qadriyatlarni nafaqat saqlash, balki ularni zamonaviy, interaktiv va qiziqarli shaklda taqdim etish imkonini bermoqda. Bu esa yoshlarning milliy merosga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ularni faol o'rganishga jalb qilish hamda madaniy ongini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar milliy qadriyatlarni global axborot makoniga olib chiqib, ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkoniyatini ham yaratadi. Natijada milliy madaniyatning ochiqligi va raqobatbardoshligi ortadi, milliy identitet esa zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashgan holda mustahkamlanadi. Biroq ushbu jarayonning samaradorligi raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, pedagog kadrlarning texnologik savodxonligi hamda sifatli milliy raqamli kontent yaratilishiga bevosita bog'liq ekanini ham ta'kidlash lozim. Shu sababli ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan birga, metodik ta'minotni kuchaytirish va pedagoglarning malakasini uzluksiz oshirib borish dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Umuman olganda, innovatsion texnologiyalar milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, ular an'anaviy ma'naviy merosni zamonaviy shaklda qayta tiklash, yoshlar ongiga yaqinlashtirish hamda global madaniy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, texnologiya va milliylik uyg'unligi kelajakda barqaror ma'naviy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Махмуд Кошғарий. Туркий сузлар девони (Девону луғотит турк).Таржимон ва нашрга таерловчи С.Муталлибов. Ўзбекистон Фанлар академияси. Уч томлик. I, II, III tom 1960.
2. Jo'rayev N.O'zgarayotgan dunyoda milliy qadriyatlar va o'zlikni anglash muammosi.// Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.Toshkent. 'Elnur print' nashriyoti.13-b.2024-y
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari (ta'lim va ma'naviyat sohasiga oid hujjatlar).
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
6. UNESCO. Culture and Education in the Digital Age. 2022.

7. Dewey J. Education and Experience. New York, 1938.
8. Rogers E. Diffusion of Innovations. 2003.
9. Turdiyev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2020.
10. Johnson L., Adams S. Technology in Education: Global Trends. 2019.
11. UNESCO. Safeguarding Intangible Cultural Heritage. 2021.
12. OECD. Digital Education Outlook. 2023.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.